



KUTUBXONALARDA ELEKTRON NAZORAT JURNALINI YURITISH INTERAKTIV TIZIMI

Normamatova Durdona Arziqul qizi

Talaba

Termiz davlat universiteti

Termiz, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8074901>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-June 2023 yil

Ma'qullandi: 20-June 2023 yil

Nashr qilindi: 23-June 2023 yil

KEY WORDS

Oliy ta'lim muassasasi, elektron qabul, elektron kutubxona, axborot tizimi, kitobxon, interaktiv tizim, vaqt, nazorat jurnali, monitoring.

ABSTRACT

Maqolada OTM kutubxonalaridan foydalanish huquqini on-layn tarzda tasdiqlash hamda kutubxonadan foydalanish vaqt oralig'i monitoringini yuritish axborot tizimi yoritilgan.

Bu interaktiv tizim oliy ta'lim muassasasi (OTM)ga on-layn qabul interaktiv tizimining (<http://qabul.tuit.uz>) davomiy qismi hisoblanadi [1]. On-layn qabul interaktiv tizimi OTMga kirish uchun imtihon topshirayotgan abituriyentlarning qimmatli vaqtini tejashga, vaqtdan unumli foydalanishga yordam beradi. Bu tizimning asosiy vazifasi abituriyentlar uchun masofadan turib qabul komissiyasi uchun on-layn tarzda ariza topshirish va kerakli hujjatlarni esa berilgan muddatda abituriyentlar qabul komissiyasiga kelib topshirishdan iboratdir.

OTMdagi kutubxonalarda elektron nazorat jurnalini yuritish avtomatlashgan tizimi esa OTMga qabul qilingan abituriyent ma'lumotlari bazasidan foydalangan holda, ya'ni on-layn tarzda ariza topshirgan abituriyentlar bazasidagi ma'lumotlari statusini talaba statusiga almashtirish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu axborot tizimining quyidagi funksional imkoniyatlari mavjud:

- ❖ OTM talabalari bazasi yordamida kitobxonlik guvohnomasini shakllantirish;
- ❖ OTM binosidagi barcha kutubxonalardan foydalanish huquqini on-layn tarzda tasdiqlash;
- ❖ OTMdagi elektron kutubxonalardan foydalanayotgan kitobxonlarni ro'yxatga olish;
- ❖ talabalarining kutubxonadan foydalanish vaqt oralig'i monitoringini yuritish;

talabalarining elektron kutubxonada murojaat qilgan internet sahifalari hamda qaysi dasturiy mahsulotlardan foydalanganligini monitoringini yuritish

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Kitobxonlik guvohnomasini shakllantirish kutubxonadagi mas'ul shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayon quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi:

- OTMga kirish uchun imtihon topshirayotgan abituriyent on-layn qabul interaktiv tizimi orqali ro'yxatdan o'tib, on-layn tarzda mos ariza shablonini to'ldiradi va kerakli hujjatlarni berilgan muddatda qabul komissiyasiga kelib topshiradi;
- abituriyentlar kerakli hujjatlar to'plamini qabul komissiyasiga berilgan muddatda kelib topshirsa, abituriyent statusi "ariza qabul qilindi", aks holda "ariza navbatda" ko'rinishida shakllanadi;
- abituriyentlar OTMga o'qishga talabalikka qabul qilinsa, abituriyent ma'lumotlari statusi "talabalikka qabul qilindi" ko'rinishiga almashtiriladi va shuningdek talaba guruh raqami, reyting daftarchasi raqami, ta'lim shakli (davlat grantlari yoki to'lov - kontrakt shartlari asosida) bilan birga shakllanadi;
- bu orqali esa OTM talabalari bazasi shakllanishiga imkon yaratiladi. OTMga o'qishga kira olmagan abituriyentlar esa arxiv shaklda keyingi yilgi on-layn qabul jarayonida foydalaniladi.

Tizimdan foydalanish tartibi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 1-rasmda kutubxonalarda elektron nazorat jurnalini yuritish interaktiv tizimidagi talabalar bazasi keltirilgan. Bu yerda talaba haqida qisqacha ma'lumot ya'ni, FIO (famiyasi, ismi, otasining ismi), to'g'ilgan sanasi, reyting daftarchasi raqami, ta'lim yo'nalishi, guruh raqami, talaba rasmi va talabaning kutubxonadan foydalanish holati berilgan.

No	Ismi	Familiyasi	Otasining ismi	Tug'ilgan sanasi	Reyting daftarchasi raqami	Ta'lim yo'nalishi	Guruh	Status Study	3x4 rasm (3x4 rasm.jpg formatda)
1	MUHRIDDIN	MARDONOV	MAHMUDOVICH	1994-11-21	11001-15	AKT sohasida iqtisodiyot va menejment	110-15 IYu	Murojat qabul qilindi	
2	SHOXRUH	HOSHIMOV	ABDIVAHOB O'G'LI	1995-10-30	11105-15	AKT sohasida iqtisodiyot va menejment	111-15 IYu	Murojat qabul qilindi	
3	MUHLISA	BOBOXO'JAYEVA	G'ULOMQODIR QIZI	1993-06-24	11002-15	AKT sohasida iqtisodiyot va menejment	110-15 IYu	Murojat navbatda	


1-rasm. Kutubxona tizimida talabalar bazasi

Shuningdek ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni turli ko'rinishda saralash mumkin (2-rasm). Bunda ta'lim yo'nalishi bo'yicha, reyting daftarchasi raqami, kitobxonlik guvohnomasi raqami va shu kabi muhim maydonlar orqali saralash imkoniyati mavjud. Agar talaba haqida to'liqroq ma'lumot olmoqchi bo'lsak, kerakli talabani izlash orqali uning ismi berilgan maydon tanlanadi. Bu yerda talaba haqida to'liqroq ma'lumot olish mumkin (3-rasm). Shuni nazarda tutish kerakki, har bir ma'lumotlar jadvalida uning ismi berilgan maydon tanlanganda, u haqida to'liqroq ma'lumot olish mumkin.

3-rasm. Talaba ma'lumotnomasi

Talaba birinchi bor kutubxonaga murojaat qilganda, uning status holati "murojaat

navbatda” ko‘rinishida bo‘ladi (4-rasm). Talabaga kutubxonadan foydalanish huquqini berish uchun, murojaat qilgan talabani tizimdan izlab, uning familiyasi berilgan maydon tanlanganda qo‘yidagi sahifa yuklanadi (5-rasm).



4-rasm. Talaба кутубхонадан фойдаланиш ҳуқуқи мавжуд бўлмаган ҳолати



5-rasm. Kitobxonlik guvohnomasini tasdiqlash

Bu sahifada kitobxon guvohnomasini tasdiqlash va chop etish imkoni mavjud. Kitobxonlik guvohnomasini to‘g‘riligi tasdiqlangandan (6-rasm) keyin, talabada OTM binosida joylashgan hamma kutubxona bo‘limlaridan foydalanish huquqi mavjud bo‘ladi.



6-rasm. Kitobxonlik guvohnomasini tasdiqlangan xolati.

Endi asosiy jarayonga o‘tamiz. Elektron kutubxonada kitobxonlarni ro‘yxatga olish uchun kutubxonaga tashrif buyurgan talaba maydonini tanlaymiz. Agar kitobxonlik guvohnomasini tasdiqlanmagan bo‘lsa 7-rasmdagi sahifa yuklanadi.

Kitobxonlar ro'yxati

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
23 sonli GUVOHNOMA

Familiyasi va ismi -sharifi: XASANOV SUNNATILLA RAVSHAN O'G'LI

Ta'lim yo'nalishi: Kompyuter injiniring ("Kompyuter injiniring", "AT-Servis", "Axborot xavfsizligi", "Multimedia texnologiyalari")

Guruhi: 210-15 Klu

Manzilgohi: Parkent tumani

Kitobxon imzosi: _____

Berilgan vaqti: 20.09.2015

Kutubxona hodimi imzosi: _____

Kutubxona nazorat jurnali
Kitobxonning kitobxonlik guvohnomasidan foydalanish huquqi mavjud emas.

7-rasm. Kitobxonlik guvohnomasini tasdiqlanmagan holati

Aks holda, 8-rasmdagi sahifa yuklanib, bu sahifada bir tarafda kitobxonlik guvohnomasi shakli, ikkinchi tarafda elektron kutubxona nazorat jurnali berilgan bo'lib, bu yerda kitobxon kirgan elektron kutubxona xonasi nomeri va talaba o'tirgan kompyuter raqami kiritiladi (talaba o'tirgan vaqtini esa tizim avtomatik yozadi).

Kitobxonlar ro'yxati

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
120 sonli GUVOHNOMA

Familiyasi va ismi -sharifi: SUVONBERDIYEV MIRZO-GOLIB BAXROMOVICH

Ta'lim yo'nalishi: Kompyuter injiniring ("Kompyuter injiniring", "AT-Servis", "Axborot xavfsizligi", "Multimedia texnologiyalari")

Guruhi: 211-15 Klu

Manzilgohi: Mirzo Ulug'bek tumani cho'ldaraxat ko'chasi 38-uy +998712642974

Kitobxon imzosi: _____

Berilgan vaqti: 20.09.2015

Kutubxona hodimi imzosi: _____

Kutubxona nazorat jurnali

Xona *

220

Kompyuter nomeri *

2

Kiritish

8-rasm. Kitobxonlik guvohnomasini tasdiqlangan holati shakli Kitobxonning kutubxonadan chiqish vaqti ham hisoblab boriladi (9-rasm).

#120(MIRZO-G'OLIB SUVONBERDIYEV)

Kompyuter nomeri *


2

Kirish vaqti	2015-09-20 23:12:35
Chiqish vaqti	Not set
Xona	220
Kompyuter nomeri	2

Chiqish vaqtini belgilash

9-rasm. Kitobxon kutubxonadan chiqish vaqtini belgilash oynasi

Shu tariqa kitobxonning kutubxonadagi barcha faoliyatlari markazlashgan ma'lumotlar bazasida saqlab boriladi va talabalarining kutubxonadan foydalanishi monitoringi qilib boriladi (10-rasm).



10- rasm. Axborot resurs markazi (ARM) – nazorati jurnali

ARM-nazorati jurnali orqali qaysi honada, qaysi vaqtda, qaysi kompyuterda, kim ishlaganligini va qaysi internet sahifalarga murojaat qilganligini hamda qaysi dasturiy mahsulotlardan foydalanganligini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa

Ushbu avtomatlashgan tizim orqali yagona ma'lumotlar bazasi asosida axborot resurs markaziga on-layn tarzda elektron nazorat jurnalini yuritishga imkon yaratadi. Bunda OTM talabalari bazasi yordamida kitobxonlik guvohnomasini shakllantirish, elektron kutubxonalardan foydalanayotgan kitobxonlarni ro'yxatga olish va ularni foydalanish vaqt oralig'i monitoringini yuritish amalga oshiriladi. Tizimni respublikamizdagi boshqa oliy ta'lim muassasalariga taqdim etish rejalashtirilgan.

Adabiyotlar:

1. Raxmanov Q.S., Maxmanov O.Q., Maxmanov B.Q. Oliy ta'lim muassasasiga on-layn qabul interaktiv tizimi. // Respublikanskoy nauchno-texnicheskoy konferensii «Sovremennoye sostoyaniye i perspektivi primeneniya informatsionnix texnologiy v upravlenii», Tashkent, 7-8 sentabrya 2015 g., str. 434-439.
2. Mahmanov O.Q., Xamdamov U.R., Tadjixodjayev Z.A. «Dekanat» avtomatlashtirilgan axborot tizimining kafedra moduli // «Davlat va jamiyat boshqaruvida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning dolzarb muammolari» Respublika ilmiyamaliy konferensiyasi materiallari, 17.04.2015 y. – Toshkent, 2015. – b.18-20.
3. <http://yiiframework.com>